

**FUQAROLARNIG SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI HAMDA
ULARNI AMALGA OSHIRISHDA XORIJIY DAVLATLARNING
TAJRIBALARI**

Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agradexnologiyalari Instituti
Agrobiznes fakulteti

Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Muzaffarov Ikromjon Nodirbek o'g'li

Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agradexnologiyalari Instituti
Agrobiznes fakulteti

Adxamova Nasiba Anvarjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni xalqaro tajriba asosida rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy davlatlarda inson huquqlarini himoya qilish tizimi va O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: fuqaro, huquq, erkinlik, konstitutsiya, inson huquqlari, demokratiya, xorijiy tajriba, davlat, adolat.

Har bir demokratik jamiyatning poydevori bu insonning shaxsiy huquq va erkinliklari hisoblanadi. Inson o'z huquq va erkinliklarisiz jamiyatda to'laqonli hayot kechira olmaydi. Shu bois, har bir davlatning asosiy qonuni Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yangi taraqqiyot bosqichiga kirib kelmoqda. Har bir fuqaroning sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, inson huquqlarini ta'minlashda davlat organlari faoliyati ochiqlik, shaffoflik va mas'uliyat tamoyillari asosida yo'lga qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi va inson manfaatlariga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat natijasida mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangicha tizim shakllanmoqda.

Ushbu jarayonlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'sini yanada mustahkamlab, inson huquqlariga hurmat bilan yondashuvchi demokratik davlat sifatida tanilishini ta'minlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bobida keltirigan "Inson, va fuqorolarning asosiy huquqlari va erkinliklari va burchlari" ga bag'ishlanadi. Bu bobda insoning hayoti erkinligi, shani qadr- qimmatini oliy qadriyat hisoblanishi. Davlat inson huquqlarini himoya qilishini va hech kim millati, jinsi, dini, tili, etiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar tengligi taminlanadi. Bu esa mamlakatimizda inson manfaatlarini davlat siyosatining markazida ekanini krsatadi.¹

Hozirgi globallasuv davrida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish, ularni milliy huquq tizimimizga moslashtirish fuqorolarning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Xozirgi kunda xorijiy davlatlarda turli xil tajribalar bor bularga misollar quyidagilar:

AQSh tajribasi: Amerika Qo'shma Shtatlarida inson huquqlari 1791-yilda qabul qilingan "Huquqlar to'g'risidagi qonun" (Bill of Rights) orqali kafolatlangan. Unda Amerika fuqorolarning so'z erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, kabi huquqlari himoya qiladi va taminlaydi. AQShda mustaqil sud tizimi va hukumatga qarshi petitsiyalar yuborish huquqlari kiritildi. Bu huquqlar hukumat va vakolatlarini cheklaydi va fuqorolarning erkinliklarini taminlaydi.²

Germaniya tajribasi: Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonuni (1949-yil) inson sha'ni daxlsizligini eng oliy qadriyat deb e'tirof etadi. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qonunlari mukammal ishlab chiqilgan. Inson

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145>

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Amerika_Qo%CA%BBshma_Shtatlari_tarixi

huquqlari buzilganda fuqaro Federal Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin.

Fransiya tajribasi: Fransiyada inson huquqlari 1789-yilgi “Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi” bilan e’tirof etilgan. Fuqarolarning shaxsiy hayoti, e’tiqodi va fikr bildirish huquqi qonun oldida tengligi, zulmga qarshilik huquqini va xususiy mulk daxlsizligini asosiy huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi taminlanadi.

Buyuk Britaniya tajribasi: Buyuk Britaniya Inson huquqlari to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasini amaliyotga tatbiq etgan. Har bir fuqaro o‘z huquqlari buzilgan taqdirda Yevropa inson huquqlari sudiga murojaat etish huquqiga ega. Bu tizim inson manfaatlarini xalqaro darajada himoya qilish imkonini yaratib beradi.

O‘zbekiston tajribasi va xorijiy amaliyot bilan taqqoslasak: O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng inson huquqlarini ta‘minlash masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

So‘nggi yillarda davlatimiz; Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, Ombudsman instituti, Konstitutsiyaviy sud faoliyati takomillashtirildi. Xorijiy davlatlardagi tajribalar bilan solishtirganda, O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy adolat prinsiplari inson huquqlarining asosiy kafolati sifatida shakllanmoqda. Bu esa xalqaro standartlarga mos holda milliy huquq tizimini rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash har bir demokratik davlatning eng muhim vazifasidir. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, inson huquqlari samarali himoyasi uchun mustaqil sud tizimi, erkin ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari faol bo‘lishi zarur.³

O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Inson huquqlari borasida xalqaro miqyosda e’tirof etilayotgan davlatlar qatoriga kirib bormoqdamiz. Bu jarayonda mamlakatimiz qonun ustivorligini taminlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, so‘z va e’tiqod erkinligini kengaytirish

³ <https://lex.uz/docs/-4872355>

hamda fuqorolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini taminlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. SHuningdek O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar, bulardan BMT, YEXT va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni mustahkamlab, ularning tavsiyalarini milliy qonunchilikka bosqichma bosqich tadbiiq etib kelmoqda. Natijada esa inson huquqlarini taminlash va himoya qilish tizimi yanada takomillashib, fuqorolarning huquqiy madaniyati ham yuksalib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri).
2. AQSh Konstitutsiyasi va "Bill of Rights", 1791-yil.
3. Fransiya "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi", 1789-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyani tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil..